

TA'LIM JARAYONIDA ISPRING DASTURIDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Saidov Rahmon Xolmurodovich
Magistrant Termiz davlat universiteti
Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ispring dasturi yordamida elektron kitob, testlar yaratish texnologiyasi va ularning ahamiyati haqida keng ma'lumot keltirilgan bo'lib, undan ta'lim jarayonida foydalanish jihatlariga ham to'xtalgan. Nafaqat mamlakatimizda balki, butun dunyo ta'lim tizimida ispring dasturi yordamida elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, pedagogik dasturiy vositalar, turli ta'lim resurslari, o'qitishning elektron vositalari, multimediali darsliklar yaratish va ulardan foydalanish rivojlanib bormoqda. Bular o'z navbatida ilm-fan taraqqiyotiga, ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga katta hissa qo'shmoqda.*

Kalit so'zlar: *pedagogikal software tools, teaching process, multimedia tools, video lesson, electronic educational resources.*

Abstract: *This article provides extensive information about the technology of creating e-books and tests using ispring in the educational process and their importance, as well as the aspects of its use in the educational process. Not only in our country, but in the entire world education system, the creation and use of electronic textbooks, electronic study guides, pedagogikal software tools, various educational resources, electronic teaching tools, multimedia textbooks is developing with the help of the ispring program. These, in turn, make a great contribution to the development of science, the increase in the quality and efficiency of education.*

Key words: *mathematical statistics, producers, consumers, organizational-agrotechnical, market, cluster, agrarian sector, agriculture, products, competition, region.*

KIRISH

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. XXI asr "Axborot asri", "Axborot texnologiyalari asri" hisoblanadi, shuning uchun bugungi kunda axborot texnologiyalarini puxta egallamoqlik zamon talabidir.

O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarorida elektron ta'lim resurslariga katta e'tibor qaratilgan[1]. Shuningdek mamlakatimizda maktablar, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalari hamda universitet va institutlarda bugungi kunda pedagogik dasturiy vositalar yordamida yatailgan elektron darsliklarni o'quv jarayoniga tadbiq etishni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Nafaqat mamlakatimizda balki, butun dunyo ta'lim tizimida pedagogik dasturiy vositalar yordamida elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, turli ta'lim

resurslari, o'qitishning elektron vositalari, multimediali darsliklar yaratish va ulardan foydalanish rivojlanib bormoqda. Bular o'z navbatida ilm-fan taraqqiyotiga, ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga katta hissa qo'shmoqda. Bunday keng qo'llaniladiganlaridan pedagogik dasturi vositalardan biri Ispring dasturi hisoblanadi. Bu videodarsliklarning samaraliligi shundaki, o'quvchilar masofadan turib, mustaqil ta'lim olishi va istalgan vaqtda elektron kitob va testlardan foydalanishlari mumkin. Bu esa bilimlarni doimo mustahkamlab borish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi. Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

O'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

Test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

Mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

Visuvalashtirish - O'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Free, iSpring PRO va iSpring Presenter kabi variantlarga ega [<http://www.ispringsolutions.com>]. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan roliklar

tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so‘rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o‘zaro interaktiv bog‘lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- ❖ taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- ❖ taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- ❖ taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko‘ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo‘yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;
- ❖ video qo‘shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- ❖ elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o‘qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o‘rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- ❖ masofaviy o‘qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- ❖ taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- ❖ videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;
- ❖ YouTube’ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.



iSpring dasturining interfeysi

EAT resurslari ichida kiruvchi ma’lumotnomalar va lug‘atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin. iSpring Visualsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- ❖ biror-bir fan bo‘yicha elektron ko‘rinishdagi qulay bo‘lgan glossariy, ma’lumotnoma yoki lug‘at yaratish;

- ❖ vaqt shkalasini yaratish;
- ❖ 3 o'lovchi kitob yaratish; • FAQ yaratish mumkin.



iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari

EAT resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin. iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- ❖ tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish)

imkoniyati;

- ❖ ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;
- ❖ bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari;
- ❖ ochiq test topshiriqlari;
- ❖ o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;
- ❖ to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.



iSpring QuizMaker dasturining interfeysi

Ispring dasturida tayyorlangan test an'naviy testlarga qaraganda bu testda bir xillik bo'lmaydi va talabalarga bir muncha qiziqarliroq tarzda testlar beriladi. Undan tashqari bu interaktiv testlarni rasm, ovoz va formulalar yordamida testlarni tuzish

imkoniyati mavjudligi ularni yanada qiziqarli va qolaversa talabani katta intuziazm bilan ishlashga chorlaydi.

Oddiy testlardan chegaralangan yo'nalishlar foydalanib test nazorati o'tkazishi mumkin edi, misol uchun musiqa yo'nalishi talabalari uchun faqat nazariyadan savollar berish mumkin edi, bu dasturda esa ovozlari qo'yish yordamida test tuzish imkoniyati borligi biror bir musiqadan parcha qo'yib savollar tuzish imkoniyatini yaratadi[2]. Boshqa yo'nalishlar: informatika, matematika, fizika, biologiya, geografiya va h.k. lar uchun ham juda qiziqarli, interaktiv testlar tuzish imkoniyati mavjud. Undan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham o'tkazish imkoniyati va elektron pochta orqali yo'llab yuborish imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamonaviy ta'lim talablariga ham javob bera oladi

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o'quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o'quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

- a) Power Point- taqdimotlar bazasida o'quv kurslarini yaratish;
- b) Audio va video fayllarni birlashtirish;
- c) Interaktiv testlar yaratish;
- d) Interaktiv bloklar yaratish;
- e) Masofaviy ta'lim tizimi uchun ma'lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o'zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturini uskunalari PowerPoint dasturining menyular satriga sozlanadi.

iSpringning o'rnatilishi muvofaqiyatli bajarilgandan so'ng, *Power Point* ga *iSpring* instrumental qatori qo'shiladi. *iSpring*ning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o'ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Flashda tayyorlangan fayl yaxshiroq bo'ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo'shiladigan xar bir ma'lumot Windows uchun o'ziga xos ahamiyatga ega.

iSpring Pro yordamida:

- Windowda Flashni muomilaga chiqarish;
- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog'lanish;
- Windowni taqdim etish;;
- Windowda audio yozish;
- Windowda video yozish;
- Windowda sinxron qilish;
- Windowga so'rovlar qo'yish;
- Windowni Flashga kiritish mumkin.

<Quick Publish> tugmasini bir marta bosish orqali yuqori darajadagi *Flash movie* o'rnatiladi.

iSpring Quick Publishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri taqdim etiladigan prezentatsiyada ortiqcha o'zgarishlarga yo'l qo'ymaydi.

iSpring Pro 180 dan ortiq effektlarga ega. Bu ko'rsatkich Power Point 2016 dagi barcha effektlar kombinatsiyasidan iboratligi, ko'plab harakatlarni o'z ichiga olganligi hamda shu ko'rsatkich bo'yicha harakatlarni mukammallashtirganligi bilan tasvirlanadi[3].

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

❖ taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;

❖ taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;

❖ taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;

❖ video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;

❖ elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);

❖ masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;

❖ taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;

❖ videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;

❖ YouTube'ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

EAT resurslari ichida kiruvchi ma'lumotnomalar va lug'atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin. iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

• biror-bir fan bo'yicha elektron ko'rinishdagi qulay bo'lgan glossariy, ma'lumotnoma yoki lug'at yaratish;

• vaqt shkalasini yaratish;

• 3 o'lchovli kitob yaratish; • FAQ yaratish mumkin.



. *iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari*


EAT resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin. iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;
- ikki, uch, to‘rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to‘g‘ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;
- bir necha to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlari;
- ochiq test topshiriqlari;
- o‘xshashlikni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar;
- to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.

Slaydlar o‘zgarishi

iSpring Pro barcha slaydlar Power Point 2013 , Power Point 2016, Power Point 2019 da slaydlar o‘zgarishi harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Power Pointdagi barcha harakatlarni nomlari bilan keltirilgan.


Power Point dasturining umumiy interfeysi.



5-rasm. iSpring Pro dasturining ish qurollari

Power Point dastur muhitida iSpring dasturi paketi

Экспресс публикация – tez publikatsiyalash (jamlash). Bunda jimlik yoki joriy holatdagi sozlash asosida slaydlar yagona faylga jamlanadi



Опубликовать – publikatsiyalash (jamlash). Bunda foydalanuvchiga alohida oynada taqdimotning xususiyatlarini sozlash taklif etiladi.



XULOSA

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida ispring dasturini qo‘llab dars o‘tish ta‘lim sifatini oshirmoqda va o‘quvchilar uchun masofadan ta‘lim olishda katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, iSpring dasturining o‘zida 6 turdagi interaktiv dasturiy maxsulotlar tayyorlashga qodir va IT sohasida minglab ta‘lim uchun samarali bo‘lgan dasturiy ta‘minotlar mavjud. Biz pedagoglar ham ta‘lim sifatini oshirish, mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi uchun yetuk kadrlarni raqobatbardosh qilib tayyorlashda IT texnologiyalarini mukammal o‘rganib, uni ta‘lim tizimiga jadallik bilan olib kirishimiz muhim deb hisoblaymiz. Zero rivojlangan xorij ta‘lim tizimi tajribasini puxta o‘rganmay, zamonaviy axborot texnologiyalarini fanlarga joriy qilmay, pedagog kadrlarimizni zamonaviy dasturiy ta‘minotlar bilan qurollantirmay turib biz ta‘lim sifatiga erisha olmaymiz..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son).
2. M.T.Azimjanova, Muradova, M.Pazilova. Informatika va axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: —O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013 y.
3. M.E.Mamarajabov, S.Q.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web dizayn. Darslik, T.: —Cho'lpon, 2013 y.
4. www.tdpu.uz – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti.
5. www.ziynet.uz – Ziyonet axborot-ta'lim portali.
6. Назарова, Ё. (2019). Methods for Correcting Errors in the Process of Learning English. Молодой ученый, (16), 280-282.
7. Aminovna, M. M., & Xalrajonovna, N. Y. (2021). Problems Of Classification And Certification Of Certain Insecticides According To The Customs Code Of The Republic Of Uzbekistan. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 3(05), 17-24.
8. Марупова, М. А., Мамасайдов, Ж. Т., & Назарова, Ё. Х. (2022). ИЗМЕНЕНИЕ БЕЛКОВОГО ОБМЕНА БИОХИМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КРОВИ ПОД ВЛИЯНИЕМ ИНСЕКТОАКАРИЦИДОВ. ББК 28.072 я43, 96.
9. Назарова, Ё. Х., & Марупова, М. А. (2022). К ВОПРОСУ ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ФЛАВОНОИДОВ ЛИСТЬЕВ ПЕРСИКА В КАЧЕСТВЕ ИНСЕКТИЦИДНЫХ ПРЕПАРАТОВ. Universum: химия и биология, (11-2 (101)), 64-69.
10. Nazarova, Y. X., & qizi Zulfiqorova, E. M. (2022). OSHQOZON-ICHAK TIZIMI KASALLIKLARINI TABIIY DAVOLASH USULLARI VA PROFILAKTIKASI. ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI, 2(24), 12-15.
11. Аскарлов, И. Р., Марупова, М. А., & Назарова, Ё. Х. (2022). PIRETROIDLAR SINFIGA MANSUB INSEKTITSIDLARNING TOKSIKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TABIIY SOF EKOLOGIK PREPARATLAR HAQIDA. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(2), 46-62.
12. Nazarova, Y. X., & Abbasjon, R. (2023). ATEROSKLEROZ KASALLIGINING BELGILARI, TURLARI VA DAVOLASH USULLARI. Journal of new century innovations, 22(2), 137-139.
13. Nazarova, Y., & Nematjonova, D. (2023). Effective Reading Strategies in Teaching English. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 79-82.



14. Xalpajonovna, N. Y., & Surayyo, R. (2023). Organizmda Suv-Tuz Almashinuvining Boshqarilishi. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(3), 12-14.
15. Nazarova, Y. X., & Samiyeva, S. (2023). ISHEMIK INSULTNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA DAVOLASH CHORALARI. GOLDEN BRAIN, 1(9), 112-114.
16. Nazarova, Y. X. (2023). RAXIT VA OSTEOPARAZ PATOGENEZI VA DAVOLASH USULLARI. GOLDEN BRAIN, 1(14), 212-216.
17. Abdurazakova, A. I. (2023). THE HARM OF DISHWASHING DETERGENTS AND ITS PREVENTION This article contains information about the work carried out in the Republic of Uzbekistan in maintaining public health, chemical detergents, their types and negative impact on human health and scientif. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 212-214.
18. Nazarova, Y. X., & Soyibjonova, M. (2023). BOLALARDA ASAB TIZIMINI RIVOJLANISHIDA GIPOTERIOZNI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 382-384.